



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari

5-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Qurbanova Marg'uba

O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY
OMMALASHTIRISH VOSITALARI 13-15

Polvanov Azim Kuchkarovich

AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING
MANBALARDА YORITILISHI 16-21

Esnazarova Zulfiya Baltashovna

QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI
(1873 – 1924) 22-27

Axmedov Shaxzod Farxon o'g'li

O'ZBEKİSTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN
(1991 – 2017-yillar) 28-36

Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid

IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR
XODIMLARNING ISHTIROKI 37-43

Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li

XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI 44-47

Asadova Ra'no Baymanovna

INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM
INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN
(CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE) 48-52

Esanova Nilufar

1991-2024 YILLARDA O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASINING SANOAT
SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR
(HINDİSTON VA XİTOY MAMLAKATLARI MISOLIDA) 53-56

Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li

O'ZBEK XONLIKLERİ VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON
O'RТАSIDAGI SIYOSIY ALOQALAR 57-64

Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li

HUDUDIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI
AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA 65-70

Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT
SANOATINING ROSSIYA IQTISODIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI 71-74

Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMİR
YO'LİNİNG QURILISHI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI 75-80

O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li

ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKİSTON SANOATI 81-88

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov</i>	
MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI:	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH	89-98
<i>Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi</i>	
MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:	
QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI?.....	99-104
<i>Xakkulov Akbar Uralovich</i>	
MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI	105-111
<i>Amonov Mehriddin Oromiddinovich</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:	
AVTOKRATIK RAHBARLAR	112-117
<i>Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna</i>	
HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI	
BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	118-125
<i>Yangiboyev Rustam Berdiyarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	126-131
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich</i>	
DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN	
FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK	
XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	132-143
<i>Eshqobilova Nigoraxon, Qurbanova Safiyabonu</i>	
DAVLAT BUDGETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING	
NAZARIY ASOSLARI	144-150
<i>Umronov Eldorbek Sodirovich</i>	
HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING	
EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI	151-159
<i>Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz</i>	
OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY	
IN UZBEKISTAN	160-172

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ahmedova Dilrabo</i>	
YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY	
JARAYONLARNING TA'SIRI	173-177
<i>Raxmatova Xolidaxon Xolikovna</i>	
NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING	
FALSAFIY TAHЛИLI	178-184
<i>Kurbanaliyev Ural Xatamovich</i>	
ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH	
DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI	185-189
<i>Soipova Mayjuda Karimjanovna</i>	
FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI	190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i>	
MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i>	
YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i>	
O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIY AHAMIYATI	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i>	
IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIY FALSAFIY TALQINLAR	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i>	
КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i>	
MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY- FALSAFIY OMILLARI	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i>	
TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizoitovich</i>	
YOSHLARDA AXLOQIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i>	
SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i>	
GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i>	
YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i>	
TARIXIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANТИRISH HAQIDAGI QARASHLAR	265-271
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i>	
СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК	272-280

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i>	
PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanova</i>	
A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i>	
ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i>	
ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i>	
MARGARET DRABBLENING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i>	
A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i>	
ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION	332-337
<i>Nazimova Himmatoj</i>	
"DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI T AHLILI	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i>	
SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI	343-348
<i>Azizova Feruza Rejvaliyevna</i>	
TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i>	
XITOY TILIDAGI MUROJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i>	
SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i>	
DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i>	
BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i>	
TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	373-376

Mamadiyorova Hilola

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI 377-384

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI 385-393

Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 394-399

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING
PREDMETI VA USULLARI 400-407

Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ
ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 408-413

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

BURHONUDDIN MARQ'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO
MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR 414-420

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

SUN'YI INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):
MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI 421-432

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI
TARTIBGA SOLISH 433-438

Avezov Umidjon Toshpulatovich

O'ZBEKİSTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH
BOSQICHLARI TAHLILI 439-446

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Максудов Улугбек Курбанович

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ
СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ
В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 447-453

Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza

SUN'YI INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 454-458

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

O'QUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmira

TALABALARDA TAHLILII FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
ASOSLARI 464-468

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMI LI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS
FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i>	
GLOBALASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM	
YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i>	
UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSALARIDA O'QUVCHILARGA	
AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i>	
TEXNOLOGIYA DARSALARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL	
ETISHNING AHAMIYATI	491-495
<i>Abdullaeva Dilgora Ulugbekovna</i>	
AKTUAL'NYIE PROBLEMY PREPODABANIIA PRAVOVYX DISCIPLIN	
W TEKHICHESKIH VUZAX	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i>	
STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA	
RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i>	
SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS	
IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	509-514
<i>Avazova Munisa</i>	
TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIIYASINI OSHIRISH:	
GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazliddinov Muhammadali</i>	
SUN'YI INTELLEKT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI	
ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI	
MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN	
ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV	
METODLARI	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART	
TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i>	
KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI	
RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY	
YONDASHUVLAR	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI	
SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI(PIRLS)GA	
TAYYORLASH USULLARI	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i>	
BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT	
TARBIYASINING O'RNI	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i>	
KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i>	
BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI	563-568

Received: 15 April 2025

Accepted: 1 May 2025

Published: 10 May 2025

Article / Original Paper

EXOGENOUS AND ENDOGENOUS FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE SERVICE TYPES IN REGION, THEIR CLASSIFICATION AND INDICATORS

Umronov Eldorbek Sodirovich

Teacher of Fergana State Technical University

Abstract. As a result of the consistent reforms and rapid economic liberalization carried out in our country over the past five years, significant progress has been made in the development of the services sector, which is considered the main link of the economy. In particular, its priority areas are innovative services and the development of their international trade, thereby ensuring sustainable economic growth, increasing the competitiveness of the sector, achieving economic and social stability, and improving the well-being of the population earth.

Keywords: services, competition, competitiveness, assessment, tourist activity, economic indicators, internal and external factors of competitiveness, small business and private entrepreneurship.

HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI

Umronov Eldorbek Sodirovich

Farg'ona davlat texnika univesiteti o'qituvchisi

E-mail: eldorbekumronov@gmail.com

Annotatsiya. Mamlakatimizda keyingi besh yillikda olib borilayotgan izchil islohotlar va iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan erkinlashuvi natijasida iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini hisoblanadigan xizmatlar sohasini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishilmoxda. Ayniqsa, uning ustuvor yo'nalishlari bo'lgan innovatsion xizmatlar va ularning xalqaro savdosini rivojlantirish va bu orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, soha raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikka erishish hamda aholi farovonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: xizmatlar, raqobat, raqobatbardoshlik, baholash, turistik faoliyat, iqtisodiy ko'rsatkichlar, raqobatbardoshlikning ichki va tashqi omillari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N24>

Zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning barqarorligi negizida xizmatlar va innovatsiyaga asoslangan xizmatlar yo'nalishlari yotadi. Ko'plab ilg'or mamlakatlar iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sanoatiga nisbatan xizmatlar va bilimlarga asoslangan tarmoqning ustuvorligi ko'rinoqda va bu tarmoq kelajakda yanada rivojlanishi prognoz qilinmoqda. [1, B. 137] Bunga misol qilib ishlab chiqarishda ilg'or bo'lgan International Business Machines (IBM), General Electric, Hewlett Packard va boshqa ko'plab kompaniyalarning rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatishga ixtisoslashuvini keltirish mumkin. [2, B.171] Moddiy ishlab chiqarishda innovatsiyalar ko'proq mahsulot va texnologiyalar orqali texnologik tajribalarga asoslanilsa, innovatsion xizmatlar ko'rsatilishida esa ko'proq inson kapitalining imkoniyatlariga, ya'ni, o'zgalar bilan muloqot qila olish

ko'nikmasi, mijozlar interfeysi va boshqa inson omili bilan bog'liq munosabatlarga asoslaniladi. [3, B. 440–454] Innovatsiya turg'un, sekinlashishga moyil yangi bozorlarga hayot bag'ishlaydi va har qanday tashkilot xo'jalik subyektining o'zgaruvchan muhitga moslashish qobiliyatini oshiruvchi mexanizmi bo'lib xizmat qilishi mumkin.[4, B. 157-166]

Innovatsion rivojlanishga eng katta ta'sir qiluvchi omil biror bir mamlakat yoki hududdagi ta'lim tizimining rivojlanganligi, aholi intellektual salohiyati, va, albatta, mamlakatning ilmiy sohani qo'llab-quvvatlashga qaratgan siyosati bilan bog'liq. Shu paytgacha sodir bo'lgan va hozirda yuz berayotgan innovatsion o'zgarish va yangiliklarning barchasi zamirida ilmiy izlanishlar natijasi yotadi. Siyosiy fanlar doktori O.R.Hasanov buni kitobxonlik reytingi hamda aholi soniga nisbatan kitoblar savdosi hajmi bo'yicha kuchli 20 talikdagi davlatlar bilan davlat boshqaruvida innovatsiyani aniqlaydigan reytingni solishtirilsa, aksariyat davlatlar mos kelishi bilan izohlaydi. Ya'ni, kitobxonlik rivojlangan hududdagina innovatsion g'oyalari va innovatsion o'zgarishlar yuz beradi.

Innovatsion xizmatlar turlarining ko'payishi, ularning rivoji mintaqada mavjud imkoniyatlar, shart-sharoitlar bilan birgalikda, ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bilan ham bevosita bog'liq hisoblanadi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqqan holda, mintaqada innovatsion xizmatlarni rivojlanirish asosida bu omillarni chuqur tahlil qilish va natijalarni amaliyotga izchil tatbiq qilish yotadi. Amalda innovatsiya mamlakatlarning o'zlari bilan bog'liq bo'lmannan tashqi va ichki o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan endogen hamda aralash shakllardagi omillarga bo'linadi. [5, B. 263-312] Mamlakatimizda hozirgi davrga kelib ko'rsatilayotgan har qanday innovatsion xizmat turlarining YaIM tarkibidagi ulushi hamda ularning xoh ichki bo'lsin, xoh tashqi savdodagi ulushi nisbatan kichik hajmga ega. Innovatsion xizmatlar hajmi yildan-yilga rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lsada, taraqqiy qilgan mamlakatlardagi bilan respublikamiz va uning boshqa mintaqalaridagi natijalar taqqoslanganda, ham sifat, ham hajm jihatdan ancha orqada ekanligi yuzaga chiqadi. Shu sababdan ham, yangilanayotgan institutsional sharoitda, raqobatbardoshlikning eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan mintaqaviy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi unda ilm, ta'lim, ishlab chiqarish, moliyaviy, ijtimoiy faoliyatlarning bir-biri bilan chambarchas bog'liq tarzda shakllanishini nazarda tutadi. [6, B. 192-197]

Tadqiqotlar va tahlillar asosida mintaqamizda xizmatlar xalqaro savdosining bugungi kundagi holati va uning kelajakda rivojlanishiga ko'plab ekzogen va endogen omillar ta'sirlari juda yuqoriligini kuzatish mumkin. Xizmat ko'rsatuvchi subyektlar hamda ularning faoliyat yuritishi bilan bog'liq jarayonlarga ta'sir qiluvchi barcha omillar shartli ravishda ikki katta guruhga, ya'ni, ekzogen va endogen omillarga bo'lib o'rganildi. Nazarimizda omillarni bunday tasniflash va ular tahlili mintaqada innovatsion xizmatlar rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni hal qilish hamda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni tezda bartaraf qilish imkonini beradi va kelajakda soha jadal rivojida amaliy dastur bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu maqsadda xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini tashkil qilish va barqarorligini ta'minlashga ta'sir qiluvchi ekzogen va endogen omillar turlari va ularning tasnifini quyidagicha shakllantiramiz (1-rasm).

Iqtisodiyotda xizmat ko'rsatuvchilar faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni mavjud nazariy bilimlarga tayangan holda, ikkita katta, ekzogen va endogen guruhlarga, o'z navbatida, bu guruhlarni assosiy yettita kichik bo'limlarga ajratgan holda tasniflandi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini olib borish, jahon standartlariga mos xizmatlarni tashkil etishda bevosita iqtisodiy qonuniyatlar muhim rol o'ynashini inobatga olgan holda birlamchi omil sifatida iqtisodiy omillar qarab chiqildi. Bugungi kunda mavjud ko'rsatilayotgan xizmatlarni kelajakda hajm va sifat jihatdan rivojlantirishda, uning innovatsion turlarini amaliyotga tatbiq qilishda eng muhim omilni iqtisodiy omil tashkil qiladi. Ekzogen omillar sifatida, innovatsion xizmatlar ko'rsatilishida rivojlangan mamlakatlar tajribasi muhim rol o'ynashini inobatga olib, tashqi iqtisodiy aloqalar va integratsion aloqalar o'rnatilishi bevosita ta'sirga ega. Innovatsiyalar amaliyotda katta hajmdagi investitsiya bilan bog'liqlikda rivojlanadi. Buning uchun tashqi moliyaviy resurslar zarurligi, investorlar faoliyatini tashkil qilishiga jozibador muhit, ya'ni, erkin savdo hududlarining tashkil qilinishi va natijada jahon standartlariga mos xizmatlar ko'rsatilishi bilan bog'liq omillar ijobjiy ta'sirga ega hisoblanadi.

Endogen iqtisodiy omillar sifatida, xizmatlar sohasining diversifikatsiyasi, daromadlar manbalari va taqsimlanishining sifati, islohotlar davrida davlatning moliyaviy ko'magi hamda subsidiyalar ko'lami va boshqa omillar ta'sir doirasi kengligi inobatga olindi. [4, B. 69–73.]

ekzogen omillar	endogen omillar
<ul style="list-style-type: none"> - To'g'ri tashkil qilingan tashqi - iqtisodiy aloqalar - Integratsion aloqalar - Moliyaviy resurslar - Erkin savdo hududlari - Jahon talabidagi standartlar va boshqalar 	<ul style="list-style-type: none"> - Xizmat ko'rsatish turi - Daromadlar manbalari va taqsimlanishi - Subsidiya, moliyaviy yordam va zaxira - Faoliyat ko'lami darajasi va boshqalar
<ul style="list-style-type: none"> - Milliy qadriyatlar va an'analar - Diniy qarashlar - Tarixiy qadriyatlar va aloqalar - Aholining sohaga bo'lgan moyilligi - Ijtimoiy infratuzilmalar mavjudligi 	<ul style="list-style-type: none"> - Xodimlarni har tomonlama ijtimoiy himoyasi - Ijtimoiy rag'bat tizimining yo'lga qo'yilganligi - Yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash va ustoz-shogird munosabatlari
<ul style="list-style-type: none"> - Geografik joylashuv - Tabiiy resurslar - Ekologik va sanitar gigiyenik vaziyat - Tabiiy-geografik ofatlar - Harorat, iqlim o'zgarishlari va boshqalar 	<ul style="list-style-type: none"> - Xizmatlarning ekostandartlarga mosligi - Ekologik bilim, madaniyat va etika - Tabiiy ofat va iqlimiylar o'zgarishlardan himoyalanish vositalari, jihozlari va boshqalar
<ul style="list-style-type: none"> - Innovatsion texnologiyalarning jalb qilinganligi - Sohaga ilmiy yondashuv - Infratuzilma darajasi - Texnopolis, texnoparklar hamda markazlar tashkil qilinganligi va boshqalar 	<ul style="list-style-type: none"> - Texnik va texnologik qurollanganligi - Fan-texnika yutuqlari joriy qilinishi - Xodimlar malakasining oshib borishi va boshqalar
<ul style="list-style-type: none"> - Yuqori sifatli ma'lumotlar bazasini shakllantirish - Hamkorlar bilan aloqalar va ular o'rtaсидagi raqobatga oid ma'lumotlar - Tezkor va birlamchi axborotlar olinishining innovatsion vositalari va boshqalar 	<ul style="list-style-type: none"> - Ishchilar bilan aloqa va teskari aloqa mavjudligi - AKT bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish darajasi - Xodimlarning kundalik ma'lumot bilan ta'minlanganligi, kiberxavfsizlik va boshqalar
<ul style="list-style-type: none"> - Zamonaviy boshqaruв usullari - Xalqaro tashkilotlarga a'zolik - Ikki va ko'п tomonlama aloqalar - Malakali kadrlar, ular bilimini oshirish, qayta o'qitish va boshqalar 	<ul style="list-style-type: none"> - Qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda nazorat va monitoring - Sohada xodimlarning yetarli tajribaga egaligi va layoqati - Ichki boshqaruв tizimi shaffofligi - Xodimlarning jamoaga sodiqligi va boshqalar
<ul style="list-style-type: none"> - Xalqaro huquqiy normalar - Sohaga oid huquqiy normalar va meyoriy xujjatlar - Xalqaro huquqiy nazorat va monitoring - Hamkorlikka oid xalqaro huquqiy shartnomalar, kelishuvlar va boshqalar 	<ul style="list-style-type: none"> - Mulkiy egalik qilish shakli va xususiyatlari - Soha va xodimlar faoliyatining huquqiy himoyalanganligi - Xodimlar huquqlari himoyasi kafolatlanganligi - Qonun ustuvorligi va boshqalar

1-rasm. Xizmat ko'rsatuvchi subyektlarni tashkil qilish va samarali faoliyatini ta'minlashga ta'sir qiluvchi ekzogen va endogen guruhlari tasnifi¹

¹ Muallif ishlanmasi

Shuningdek, xizmatlarni tashkil etishda milliy qadriyatlar, diniy qarashlar, rag'bat va munosabatlar, aholi qiziqishi, intellektual salohiyati va ijtimoiy himoya darajasi bilan bog'liq munosabatlarni inobatga olgan holda endogen va ekzogen ijtimoiy omillar ham o'rganildi.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi, faoliyat turining geografik joylashuvi, resurslarning mavjudligi, ekologik holat, iqlim o'zgarishlari va boshqa tabiiy jarayonlar hamda xizmatlarning ekostandartlarga mosligi,

aholining ekologik bilim, madaniyat va etikasi ta'sirlarini inobatga olib, xizmatlar sohasida endogen va ekzogen tabiiy omillar ham katta ta'sirga ega

To'rtinchi guruh sifatida fan va texnik-texnologik omillar keltirilgan bo'lib, bunda asosiy e'tibor innovatsion texnologiyalarning jalb qilinganligi, sohaga ilmiy yondashuv, infratuzilma darajasi va boshqa shart-sharoitlarga qaratilgan. Bevosita ta'lrim xizmatlarini ko'rsatishda tadqiqot obyekti bo'lganligini e'tiborga olib, bu muhim omillarning ISO 9001: 2000 standartining iste'molchilar ehtiyojlari hamda talablarining qanchalik qondirilganligini baholaydigan sifat menejmenti tizimi e'tiborimizda bo'ldi.

Innovatsion xizmatlar turlarini rivojlanadirishda qarorlarni to'g'ri va o'z vaqtida qabul qilish lozim. Faoliyat barqarorligiga erishishda axborot sifati, ishonchliligi, xavfsizligi, jarayonning yuqori zamonaviy dastur hamda AKT vositalari va jihozlari bilan ta'minlanishida axborot omillarining muhim ahamiyat kasb etishi inobatga olindi. Iqtisodiyotning globalлаshuvi AKT yutuqlariga asoslangan innovatsion raqobatning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bu esa, AKT tizimlarini izchil takomillashtirib borish asosida ayovsiz raqobat kurashidan orqada qolmaslik uchun doimiy izlanishda bo'lishni taqozo qiladi, boshqa tashkilotlar va mamlakatlar tajribasini o'rganishning yangi yo'llarini ochilishiga olib keladi. [9, B. 390]

Yana shuningdek, innovatsion xizmatlar ko'rsatishda eng muhim bosqichlar biri sifatida boshqaruvni tashkil qilish, qarorlarni to'g'ri, siqatli va o'z vaqtida qabul qilishda nazorat va monitoring, sohada xodimlarning yetarli tajribaga egaligi, ularning layoqati, ichki boshqaruv tizimi shaffofligi va xodimlarning jamoaga sodiqligi va boshqalar shu kabi endogen va ekzogen tashkiliy omillar taklif qilindi. Jumladan, innovatsion firmalar uchun inson resurslari sifati va hajmining ahamiyati odatdagি firmalarga nisbatan 40 barobar kuchli ta'sirga egaligi e'tiborga olindi va bu omilning innovatsion rivojlanishni ta'minlashda assosiylardan ekanligi qayd qilindi.

Va oxirgi yettinchi omil qilib, qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy omillar zarurligi o'rganilgan. Bunda ekzogen omillarga, xizmatlar ko'rsatishda xalqaro huquqiy normalarga asoslanish, sohaga oid huquqiy normalar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilganligi, huquqiy nazorat va monitoring olib borilishi, boshqa xorijiy davlat va tashkilotlar bilan xalqaro huquqiy shartnomalar, kelishuvlar va boshqalar kiritilgan. Endogen omillar sifatida, mulkka egalik huquqi va uning xususiyatlari, ichki tashkilot va xodimlar faoliyatining huquqiy himoyalanganligi, qonun ustuvorligi va boshqalarning soha rivojidagi o'rni tahliliy o'rganilgan.

Tahlillarimiz natijasida shuni ta'kidlash lozimki, mintaqada xizmatlar xalqaro savdosini yanada yuksaltirishda har bir xizmat turining shakllanish bosqichidan bugungi darajasigacha bosib o'tilgan yo'lni, erishilgan yutuq va kamchiliklarni hamda kelajakda jahoning xizmatlar savdosи yaxshi yo'lga qo'ygan mamlakatlaridagi kabi natijalarga erishishda har bir xizmat turi istiqboliga alohida yondashuv talab qilinadi. Mintaqada salohiyati yuqori bo'lgan va rivojlanib borayotgan turizm va transport turlari olinadigan bo'lsa, ularning ibtidosi uzoq o'tmishda ham mustahkam asosga ega bo'lgan, ya'ni mamlakatimizning markaziy qismida joylashib, "Buyuk ipak yo'li" gullab-yashnagan davrlariga borib taqaladi. Tarixiy nuqtai nazardan ushbu xizmat

turlarining xalqaro savdosi turli xil nizolar oqibatida yoki yaqin o'tmishdagi sobiq Sovet ittifoqining yopiq iqtisodiyotga asoslanishi sababli tanazzulga uchragan yoki deyarli to'xtab qolgan davrlari ham bo'ldi. Respublikamizning mustaqillikka erishishi tufayli ushbu xizmat turlariga bo'lgan e'tibor, yaratilgan imkoniyatlar, turli shakldagi va hajmdagi imtiyoz va erkinliklarning berilishi, ayniqsa, oxirga yillarda chiqarilgan hukumat qarorlari va sohaga innovatsion texnologiyalarning jalb qilinayotgani ushbu xizmat turlarining jadal sur'atlarda rivojlanishiga olib keldi. Bularga yangi transport-logistika yo'llari markazlarining ochilishi, deyarli to'xtab qolgan temir yo'l orqali yuk tashishning yanada rivojlantirilishi, qo'shni davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning chuqurlashuvi, ichki va tashqi turizm jadal rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratilayotganligi va boshqa bir qancha omillarni sanab o'tish mumkin. Shu bilan birga, mintaqamizda mavjud turistik imkoniyatlar ushbu ustuvor, samarali xizmatlar turlari xalqaro savdosini yaqin yillarda bir necha barobar oshirish mumkinligini ham isbotladi.

Hududlarda azaldan nufuzli oliy ta'lim, tibbiyat o'quv va o'rta maxsus bilim yurtlari sonining ko'pligi, qo'shni Turkmaniston va Qozog'istonning chegara viloyatlaridan bizdagi ta'lim va tibbiy xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Bu omil istiqbolda, mavjud imkoniyatlardan yanada unumli foydalanib va kengaytirib, soha xizmatlari xalqaro savdosini jadal sur'atlarda rivojlantirishga asos bo'ladi.

Shu o'rinda Amerikaning xalqaro o'qituvchilar ta'lim va almashinuvga ixtisoslashgan dunyodagi eng yirik notijorat birlashmasi (NAFSA) AQShning 509 ta universitetlari orasida ta'lim xizmatlari eksportiga aks ta'sir qiladigan omillar bo'yicha so'rovnoma natijalarini keltiramiz (1-jadval).

1-jadval

Ta'lim xizmatlari eksportiga aks ta'sir qiladigan omillar¹

Ro'yxatdan o'tishni rad etish sababi	2016 Kuzgi semestr (%)	2017 Kuzgi semestr (%)	2018 Kuzgi semestr (%)
Viza olish jarayonidagi kechikishlar yoki rad etish	34	68	83
Ijtimoiy va siyosiy muhit	15	57	60
Boshqa davlat universitetlaridan ro'yxatdan o'tish	19	54	59
O'qish narxi	51	55	57
O'zini noqulay his qilishi	-	49	50
Ish bilan ta'minlanganlik	-	41	44
Xavfsizlik	12	33	44

So'rovning birinchi yilda eng yuqori ko'rsatkich o'qish narxining yuqoriligi bo'lsa, 2017-yilga kelib, viza munosabatlari eng yuqoriga chiqqan va so'nggi, 2018-yilda ham deyarli 83% talabalar viza olish bilan bog'liq muammolarga uchraganliklarini ma'lum qilganlar. Shu bilan birga, qolgan barcha 6 ta yo'nalishda ham dastlabki yilga nisbatan o'sish, ya'ni, muammolar ko'payganligi ma'lum bo'lgan va buning oqibatida dunyo bo'yicha AQShda ta'lim oluvchilar hajmi umumiy 28% dan 21%gacha pasaygan.

Avstraliyadagi bitiruvchilarga o'qishdan keyin qolib, 18 oy ishlashi mumkinligi to'g'risidagi qonun 2018-yilda ro'yxatdan o'tgan talabalar hajmining 15% ga oshishiga va

¹ NAFSA.org Butun jahon pedagoglar jurnali ramiy sayti

Kanadada bitiruvchilarga uch yillik ishchi vizasining berilishi esa 2017-yilda bu mamlakatda ro'yxatdan o'tgan talabalar hajmining 20% o'sishiga olib kelgan.

Xizmatlar savdosini erkinlashtirish o'z navbatida o'rta yoki uzoq muddatda katta samara berishi mumkin. O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak, bojxona tariflarini kamaytirish hozirda jahon mamlakatlariga chiqadigan turistlar hamda turistik xizmatlarning rivojiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda xizmatlar xalqaro savdosi, xususan, innovatsion yo'naliishlar bilan bog'liq chora-tadbirlar hanuz kutilganidek yuqori samarali natijalar bermayapti. Fikrimizcha, yuqori natijalarga erishish va xalqaro bozorlarda salmoqli ulushga ega bo'lish uchun yana quyidagi qo'shimcha vazifalarni jadal amalga oshirish zarur (2-rasm).

Xizmatlar savdosida proteksionizm siyosatining joriy qilinishi milliy iqtisodiyot manfaatlariga katta ziyon yetkazadi. Bu mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan tarmoqlarning sifat jihatdan yangi asosda rivojlanishini sekinlashtiradi hamda raqobatbardoshligini kamaytiradi. [12, B 195]

- o'ziga xos salohiyatga ega bo'lgan mahalliy ishlab chiqaruvchilarning innovatsion xizmatlar bilan xalqaro bozorlarga chiqishini davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- Har qanday innovatsion ishlanmalarning tashqi xizmatlar bozorlariga chiqishi bilan bog'liq mahalliy byurokratik to'siqlarni bartaraf qilish;
- dastlabki davrda hamkor davlatlar milliy brendlaridan unumli foydalanib, ular bilan qo'shma markazlarni mintaqada ochish;
- milliy mahsulotlar brendlarini yaratishni kengaytirish va ularni targ'ibot qilish hamda xorijda ommalashtirish;
- ishbilarmonalrimizda xalqaro xizmatlar savdosi madaniyatini shakllantirish va takomillashtirib borish;
- xalqaro xizmatlar savdosi ishbilarmonlari uchun maxsus soliq imtiyozlarini joriy etish va soliq yukini yanada keskin kamaytirish;
- mahalliy va xorijiy mijozlar va vositachilar bilan tijorat aloqalarini o'zaro kooperatsiya va integratsiya asosida yuqori saviyada tashkil etish bilan global qiymat zanjirlari ishtirokiga erishish;
- mahalliy mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish uchun chet eldan maxsus, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalar, investorni jaib qilib, qo'shma korxonalarini tashkil qilish va shu kabi boshqa choralarни qo'llash talab qilinadi.

2-rasm. Xizmatlar savdosi va uning innovatsion yo'nalishlari samaradorligini oshirishning ustuvor vazifalari¹

Fikrimizcha, xalqaro xizmatlar savdosining erkinlashtirilishi va cheklovlarning olib tashlanishi ichki xizmat ko'rsatuvchilarga raqobat jihatdan ma'lum bir miqdorda salbiy ta'sir qilsa ham, mamlakatning raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hisobidan umumiy daromadi oshishiga, ustuvor tarmoqlar jadal rivojlanishi bilan mamlakat iqtisodiyoti uchun multiplikator samaradorligini berishda katta ahamiyat kasb etadi.

¹ Muallif ishlanmasi

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Irving Rosalind (2017). The role of a transnational education service business in higher education. A Thesis Submitted for the Degree of Doctor of Education. University of Bath. P. 137.
2. Bradley, Nasira (2020). Economics of innovation, productivity and growth. PhD thesis. University of Glasgow. P.171.
3. Umronov E.S. Turistik korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mavzusida yozilgan iqtisodiyot fanlari bo'yicha (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi // Andijon 2023.
4. Умронов Э.С. Туристик корхоналарда тадбиркорлик фаолияти ривожланишига омиллар таъсирини баҳолаш // Бизнес-эксперт. Бизнес-Daily медиа. – 2022, №4. 69–73-б. (08.00.00 №3).
5. Умронов Э.С. Туристик корхоналарда тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш хусусиятлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – 2022, № 3(87). 171–176-б. (08.00.00 №21).
6. Umronov E.S. Prospects of Business Development in Tourist Enterprises // International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology| e-ISSN: 2792-4025| <http://openaccessjournals.eu> | Volume: 2 Issue: 7 – 49-54 pp.(08.00.00 №24).
7. Umronov E.S. (2022). Improvement of Organizational and Economic Mechanisms of Business Activity Development in Tourist Enterprises. European Multidisciplinary // Journal of Modern Science, 9, 73–79 pp.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).